

## 54. Kechikishli harakat



Yondosh mavzu:  
musobaqa.

Juft sonlar,  
qo'shish va ayirishning  
xossalari.

1. Bir xil qiymatga ega bo'lgan misollar juftliklarini toping. Har bir sport turi uchun sport anjomlarini tanlang.

Regbi

18855 : 15

Biatlon

247 · 9

Beysbol

13368 : 8

Golf

356 · 7



9496 – 7825



1334 + 1158



3241 – 1257



1126 + 1097

2. Qaysi jamoaviy o'yin eng uzoq davom etishini aniqlang.

Regbi

40 minutdan  
2 ta bo'lim

Tanaffus:  
15 minut

Basketbol

15 minutdan  
4 ta davr

Tanaffuslar:  
15 minutdan

Xokkey

20 minutdan  
3 ta davr

Tanaffuslar:  
17 minutdan


3. Daftaringizga yozing:

- a) 5 ga karrali 10 ta son;
- b) 12 ga karrali 8 ta son;
- c) 40 ga karrali 6 ta son.





4. Ikki o'yinchi bir yo'nalishda yugurib bormoqda.



- Hozir ular bir-biridan qanday masofada bormoqda?
- Salim 1 sekundda qancha masofani bosib o'tadi? U qaysi nuqtaga yetib boradi?
- Akmal 1 sekundda qancha masofani bosib o'tadi? U qaysi nuqtaga yetib boradi?
- 1 sekunddan keyin ular orasidagi masofa qanday bo'ladi?
- 1 sekunddan keyin ular orasidagi masofa oshdimi yoki kamaydimi? Necha metrga?
- Agar Salim shunday tezlikda yugurishda davom etsa, u Akmalga yetib oladimi?

Daftaringizda jadvalni to'ldiring.

| $t, \text{s}$ | 0  | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
|---------------|----|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $x_1$         | 15 |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
| $x_2$         | 6  |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
| $S, \text{m}$ | 9  |   |   |   |   |   |   |   |   |   |



Oldinma-ketin harakatlanayotgan sportchilar bir-biridan uzoqlashishi mumkin. Bu oldinda borayotgan sportchining tezligi ortda borayotgan sportchining tezligidan katta bo'lgan holda yuz beradi. Bu harakat kechikishli harakat deb ataladi. Uzoqlashish tezligini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$v = v_1 - v_2.$$



- Jasur bilan Akmal startdan bir vaqtda qo'zg'aldi. Jasurning tezligi 3 m/s, Akmalning tezligi esa 4 m/s. 1 sekundda Akmal Jasurni necha metr ortda qoldiradi?  
2 sekundda-chi? 5 sekundda-chi? 30 sekundda-chi?

## 54. Kechikishli harakat



6. Sportchilarni ular tezligining kamayib borishi tartibida joylashtiring.



Akmal  
12 min da  
1608 m



Madina  
6 min da  
792 m



Jasur  
25 min da  
3250 m



Umida  
15 min da  
1860 m



Aziza  
20 min da  
2506 m



Sardor  
16 min da  
2752 m



7. Amallarning to'g'ri tartibiga rioxha qilgan holda hisoblang.  
Bu yerda qanday jamoaviy sport turlari yashiringan?

$$348 \cdot 407 + 18\ 685 - 761\ 755 : 365$$

- |                 |                  |                  |                  |
|-----------------|------------------|------------------|------------------|
| <b>A</b> 18 822 | <b>L</b> 160 321 | <b>M</b> 12 505  | <b>O</b> 158 234 |
| <b>E</b> 14 124 | <b>O</b> 2 087   | <b>P</b> 141 636 | <b>R</b> 6 274   |

$$86 \cdot 712 - 312 + 72640 : (400 : 5) + 2001 \cdot 204$$

- |                  |                |                 |                |
|------------------|----------------|-----------------|----------------|
| <b>G</b> 469 900 | <b>Y</b> 61232 | <b>K</b> 80     | <b>O</b> 908   |
| <b>N</b> 470032  | <b>L</b> 60920 | <b>R</b> 408204 | <b>I</b> 61828 |



8. Quyon ovchidan 750 m/min tezlikda qochib ketmoqda. Ovchingning tezligi quyonning tezligidan 5 marta kichik. Agar dastlab ular orasidagi masofa 300 m bo'lsa, 10 minutdan keyin quyon ovchidan qanday masofada bo'ladi?